

**Alisher UBAYDULLAYEV,**  
*O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti, f.f.n.*  
*E-mail: a.ubaydullayev@nuu.uz*  
*Tel: (94) 663 56 69*

*O'zMU professori Nasimxon Rahmonov taqrizi asosida*

## LINGUISTIC STUDY OF MANUSCRIPT SOURCES OF CLASSICAL LITERATURE (ON THE BASIS OF THE WORK "DEVONI HIKMAT")

Annotation

The article analyzes the study of the language of classic literary works based on the original, some language features, phonetic, lexical and morphological features of Ahmad Yassavi's wisdom based on examples. There are also analyzed lexical units specific to the ancient Turkic language used in hikmats. A detailed study of the language features of the work is explained on the basis of examples, clarifying the theoretical views on the formation and development of the lexicon of Turkic languages with a centuries-old history, in particular, the Uzbek literary language, and providing valuable information for the historical lexicology of the Uzbek language.

**Key words:** Classic, phonetics, lexicon, morphological features, wisdom.

## ЛИНГВИСТИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ РУКОПИСНЫХ ИСТОЧНИКОВ КЛАССИЧЕСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ (НА ПРИМЕРЕ ПРОИЗВЕДЕНИЯ «ДЕВОНИ ХИКМАТ»)

Аннотация

В статье на основе оригинала изучен язык классических литературных произведений, на примерах анализируются некоторые языковые особенности, фонетические, лексические и морфологические особенности слов мудрости Ахмада Яссави. Также анализируются лексические единицы, характерные для древнетюркского языка, используемые в словах мудрости. Детальное изучение языковых особенностей работы позволит уточнить теоретические взгляды на формирование и развитие лексики родственных тюркских языков с многовековой историей, в частности, узбекского литературного языка, и даст ценные сведения для исторической лексикологии узбекского языка.

**Ключевые слова:** Классический, фонетика, лексика, морфологический признак, слова мудрости.

## MUMTOZ ADABIYOT QO'LYOZMA MANBALARNING LINGVISTIK TADQIQI ("DEVONI HIKMAT" ASARI MISOLIDA)

Annotatsiya

Maqolada mumtoz adabiy asarlar tilini asliyat asosida o'rganish, Ahmad Yassaviy hikmatlarining ayrim til xususiyatlari, fonetik, leksik va morfologik xususiyatlari misollar asosida tahlil qilingan. Shuningdek, hikmatlarda qo'llangan qadimgi turkiy tilga xos leksik birliklar ham tahlil etilgan. Asarning til xususiyatlarini atroflicha o'rganish ko'p asrlik tarixga ega bo'lgan qardosh turkiy tillar leksikasining, xususan, o'zbek adabiy tilining shakllanishi va rivojlanishi borasidagi nazariy qarashlarga aniqlik kiritishi, hamda o'zbek tili tarixiy leksikologiyasi uchun qimmatli ma'lumotlar berishi misollar asosida yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Mumtoz, fonetika, leksika, morfologik xususiyat, hikmat.

**Kirish.** Tarixiy asarlar tilini o'rganishning muhim jihatlaridan biri-davr tili birliklarining berilishini va ifodalanishini aniqlashdir. Shuning uchun ham badiiy asarda til asosiy o'rinni egallaydi [1, 2]. Badiiy asar tili davr adabiy tilining o'ziga xos ko'rinishiga va xususiyatlariga ega bo'lgan shakllardan biri hisoblanadi. Uning tili ham til taraqqiyotining umumiy qonuniyatlarini o'zida aks ettiradi. Shuningdek, har bir davrga oid badiiy adabiyotda ma'lum bir adabiy tilning turli uslublari keng qo'llanishini kuzatish mumkin.

Ahmad Yassaviy bizning yozma adabiyotimiz va adabiy tilimiz asoschisi sifatidagina mashhur bo'lmay, balki madaniyatimiz tarixida eng ko'p nisba va unvonlarga ega mutafakkir desak mubolag'a bo'lmas [2]. Demak, jamiyat va til tarixidan boxabar bo'lishda Yassaviy asarlari leksik tarkibini tadqiq etish nafaqat o'zbek xalqining uzoq o'tmishini ilmiy asosda yoritish, shuningdek, o'zbek tili va adabiyoti tarixini o'rganish nuqtai nazaridan ham g'oyat muhimdir, bu esa mavzuning dolzarbligini asoslaydi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** O'zbek adabiy tili tarixiga nazar tashlasak, XIV asrda endigina eski turkiy adabiy tildan ajralib chiqqan boshlagan eski o'zbek adabiy tilining "qarluq-xorazm adabiy tili", "Chig'atoy ulusi adabiy tili", "Oltin O'rda adabiy tili" degan yorliqlar bilan yuritilganini ko'ramiz. Adabiy tilning turlicha nomlanishida, ayniqsa, "Chig'atoy", "Oltin O'rda" nomlari bilan yuritilishida ilmiy asos yo'q bo'lib, u ko'proq davr siyosati bilan bog'langan [3].

A.K.Borovkov Yassaviy hikmatlari qarluq-uyg'ur tilida yozilgan bo'lib, "Qutadg'u bilig" tiliga yaqinlashmaydi, deb ta'kidlasa, G.Vamberi hikmatlar tili Qo'qon xonligi dialektiga asoslangan, deydi. Olim Ko'prulizoda Ahmad Yassaviyning arg'u urug'ining vakili deb, uning tilida qisman o'g'uz tilining ta'siri bor va hikmatlar tili "Qutadg'u bilig" asariga yaqin turuvchi til deb ko'rsatadi. Saqlanib qolgan hikmatlarning matnlari bizgacha quyidagilarni aytishga imkon beradi. O'zbek adabiy tilining XII asrdan keyingi taraqqiyotida XII-XIII asrlardagi tarixiy voqealarning roli kattadir.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Qarluq-xorazm adabiy tilining yodgorligi sifatida Ahmad Yassaviyning "Devoni hikmat" va Rabg'uziyning "Qisasi Rabg'uziy" asarini hamda Alining "Qissai Yusuf" dostonini ko'rsatish mumkin. O'tgan asrning ikkinchi yarmi hamda so'nggi yillarda nashr yuzini ko'rgan bir qator o'quv qo'llanmalari u yoki bu adib, yozuvchi shoir asarlari tilining fonetik-fonologik, morfem-morfologik, leksik-semantik, sintaktik sathlari nuqtai nazardan baholi qudrat yoritishga qaratildi. Ular, shubhasiz, o'zbek adabiy tili tarixi, taraqqiy bosqichlari, unda yuz bergan fonetik, leksik va grammatik hodisalar borasida o'quvchiga nisbatan durust ma'lumot berishga xizmat qiladi [4].

Umumxalq tilining rivojlanishi hamma vaqt uning boshqa tillar bilan o'zaro aloqalarining kengayishi bilan bog'liq holda davom etadi. Ma'lumki, boshqa til unsurlarining kirib, o'zlashib qolishi tarixiy va qonuniy hodisa hisoblanadi. Bu tarixiy jarayon muayyan xalq yoki tilning o'ziga xos taraqqiy etishiga, til lug'at tarkibining boyishiga olib keladi [5]. Bunday o'zaro ta'sir ayrim davrlarda kuchsiz darajada bo'lsa, boshqa bir davrda sezilarli va samarali kechadi. Shu bilan birga, ba'zi vaqtlarda mazkur jarayon stixiyali tarzda o'ziga xos, uni ma'lum qonun-qoidalari asosida yo'lga solish, unga insoniyatning faol aralashuvi talab etiladi [6].

O'zbek tili leksikasida eskirgan so'zlarning asosini tashkil etgan istorizm va arxaizmlar funktsional jihatdan chegaralangan leksik qatlamga mansub bo'lib, faqat arxaizmlargina o'zining sinonimik qatoriga ega. Ilmiy adabiyotlarda, narsa-predmet yoki hodisa zamonaviy bo'lib, uning o'tmish nomi yoki atamalaridan biri iste'moldan chiqadi, eskiradi, deyilgan [7].

**Tahlil va natijalar.** Hikmatlarning tilini tahlil qilar ekanmiz ularda mahalliy shevalarga xos xususiyatlarni uchratamiz. Jonli o'zbek tili shevalarida qaratqich va tushum kelishigi uchun –ni shakli qo'llanadi. Bu holni hikmatlarda ham uchratamiz. Masalan: daryani, gavharin, karvanin, sokin olib qocharmi va shu kabilar. Buyruq fe'lining ikkinchi shaxs birlik shakli –gil, -gin (-g'il, -g'in) affiksleri orqali hosil qilinadi. Masalan: kergil-kergin, solg'il-salg'in, qilg'il-qilg'in kabilar.

Ayrim shevalardagi kabi, bir i tovushi orttiriladi. XV-XVI asrlarga oid ko'pchilik yodgorliklarda bu holat mavjud bo'lsa ham, ba'zilarida yo'q ekanligini ko'ramiz. Bu esa hikmatlarda ikki dialektal qutb birlashgan degan xulosaga olib keladi. Masalan:

Asarlari elkinda hikmat qo'ri belinda,

Idzim edi tilinda, ollo degan darveshlar.

Leksika sohasida ham ba'zi dialektal unsurlarni uchratamiz: yaqin, yavuuq.

Fonetik jihatdan so'zlarning oxirida g' tovushining kelish holati uchraydi: tanig', qamug', tufraq', chirag', ulug' kabi. Shuningdek, -lug', -lig' affiksi bilan yasalgan nisbiy sifatlar ham qo'llanadi: haqiqatlig', uyqulig', o'nglug', so'filfg' kabi. Bu xil xususiyatlar "Qisasi Rabg'uziy", "Qutadg'u bilig" va XV asr yodgorliklarida bor. Lekin keyingi davrlarda g' o'rnida ko'pincha q tovushi ishlatilgan. Rabg'uziyda "Tavsir"da va qisman XIX asrgacha saqlanib qolgan ravishning eski shakli –yu affiksi hikmatlarda juda siyrak uchraydi. Masalan:

Teyu-deb, sayrayu shaxdin shaxg'a qo'nar,

Do'stlar, istayu bo'ldy, aning sadyqlary.

Hikmatlar tilida sifatdoshlarning –mish affiksi bilan yasalgan turlari ham uchraydi: bilmishlar, o'lmishlar, kyarmisham, yurmishlar kabilar. Bu shakl eski uyg'ur an'anasi asosida yoki keyinchalik janubiy-g'arbiy tillarning ta'sirida hikmatlar tiliga kirib qolgan degan taxmin bor. Hikmatlar tiliga leksik nuqtai nazardan yondoshilganda ham arxaik so'zlar unchalik ko'p emas. Masalan: qayu-qaysi, qamug'-hamma, ilik-ilk, ay-aytmoq, aryg'-toza, uchmaq-jannat, idi-xudo, yazuq-gunoh, nuchuk-qanday.

"Devoni hikmat" leksikasining o'ziga xos xususiyatlaridan biri, unda arab tiliga xos so'zlarning juda ko'p qo'llanishidir: tariqat, sunnat, shariat, nafs, murshid, qudrat, imon, rahmon, do'zax, iloh, zikr, jannat, xudo, kofir, mo'min, ummat kabi so'zlar qayta-qayta takrorlangan. Piri komil, piri zabardast, amri ma'ruf, ro'zi mahshar, biru bor, tarbiyati tan, Musa sifat, rizqi naqis, daftari soniy, qalu balasingari arab, arab-fors iboralar ham ko'plab uchraydi. Qayta-qayta takrorlanib kelgan arsh, vahdaniyat, gunah, dozax, yazuq, zikir, mahshar, axirat, ayat, pir, sirat, subhan, fana, xaliq, qiyamat, g'ayb, hadis, haq kabi bevosita dinga va tasavvufga doir arab va fors-tojikcha so'z va atamalarining ko'p ishlatilishi "Devoni hikmat" tili uchun xos bo'lgan xususiyatdir.

"Devoni hikmat" turkiy tilda yozilgan noyob asarlardan biri bo'lib, unda faqat islom dini, tasavvuf va kalom falsafasigina emas, balki Ahmad Yassaviyning dunyoqarashi, ijtimoiy hayotning turli sohalariga, hokimlar, amaldorlar, hunarmandlar, chorvadorlar, dehqonlar kabi tabaqalarga qarashlari ham o'z ifodasini topgan. Uning falsafasida dunyodan yuz o'girish g'oyasiyotmaydi, aksincha, jaholat, yomonlik, nodonlik, molparastlik illatlariga rivoj bergan tuban dunyoni yurakdan quvishga da'vat etiladi, fisqu fujurarga barham bermoq yo'li izlanadi [8].

Hikmatlarni ajoyib ichki qofiyalar musiqiylashtirib, uyg'unlashtirib turadi bu esa xalq og'zaki ijodiga xosdir:

Dunyo mening degonlar, jahon molin olg'onlar,

Kargas qushdek bo'lubon, ul haromga botmishlar.

Mullo, mufti bo'lg'onlar, nohaq da'vo qilg'onlar,

Oqni qaro qilg'onlar, ul tamug'g'a kirmishlar.

Totlig'-totlig' yegonlar, turluk-turluk kiygonlar,

Oltun taxt o'lturgonlar, tufroq ostin qolmishlar

Yuqoridagi parchaning so'nggi ikki misrasidagi "totlig'-totlig' yegonlar, turluk-turluk kiygonlar... Tufroq ostin qolmishlar" kabi juda soddagina, lekin g'oyat ta'sirchan iboralar va o'xshatishlar bilan bezatilgan.

Yassaviy hikmatlarida qadimiy turkiy yodgorliklar tiliga xos xususiyatlarni ham uchratish mumkin. Quyidagi: "oq sinamni bijil qildim", "yurakimdan sirilib ichimga qon to'ldi", "oyrib eltur", "sensiz mango taom yemak qip-qizil qon", "ono-farzand bir-biriga cho'g'loshtilar", "bizga g'azab qildi bukun qodir O'g'on", "Ezim bizga qildi taqdir", "yuguruk otga minguvchilar", "qilich chopquvchilar", "totlig'-totlig' yegonlar", "egri yo'lg'a bo'ynin to'lg'ar", "ko'ksim chaqa", "og'zi ochuq, nafi uluq misli laqa", "po'chak pulg'a sotar ermish", "hopliqi birla bo'ldi ado", "ochig'lanib so'z qotmongiz", "qayon ketti", "o'g'lin chorlob kelturgon", "suhbat qilmish onda", "qayu taraf ketorimni bilmom", "ilmin bosib yurgay", "yotsa, qo'bcu", "o'z shahrig'a qoyto yondi", "qamug' dunyo yiqonlari", "bizni oyg'on turkini", "bu so'zlarni oydim", "oyg'um kelur", "yerga qo'yar bo'rkini", "ilkin tutib", "ilkin ochib", "tog', tuzlar", "munglug' bo'lub", "na yozuq bir xudoying'a jig'arbandim", "boro ko'rung, solo ko'rung, olo ko'rung", "yerdin qo'bdi", "kun ko'rmagan esiz mahbub mahporalar", "yig'loyurlar fig'on urub: "ey, voy onom!", "ko'rmagayduk mundog' qottig' kunlarni xom!", "boshi qotti", "bu na hasrat!" tayu (deb) zorin oydi, ko'rung!", "bo'yun tovla", "onolari ter o'lubon", "kunduzini qoro qilib kechasidin", "boshlariga qoro kiyib, yuz yirtib soch", "ich bo'yni ezdi", "cherik yiqon" kabi iboralar uchraydi.

Asarda quyidagi fonetik o'zgarishlarni ham kuzatish mumkin: Bo'yun (bo'yin), tufroq (tuproq), marham (malham), guhar (gavhar), yugrib (yugurib), uskut (sukut), aydi (aytdi), ondin so'ng (undan so'ng), sabaq (saboq), tizim (tizzam), degon (degan), hama (hamma), qovshurib (qovushtirib), eshtib (eshitib), ayg'um (aytgum), sig'nib (sig'inib), yig'lib (yig'ilib), birlan (bilan), bermak (bermoq), ko'rmaq (ko'rmoq), ayurdi (ayirdi), alarg'a (ularga), qaro (qora), sinuq (siniq) ...

Hikmatlarda fonetik jihatdan ohangdoshlik hodisasiga rioya qilingan[9]. So'z o'rtasi va oxirida q vag' tovushlari bir-biri o'rnida almashinib keladi: qatig', qatig'lanib, tufraq', andag', mundag', chirag' kabi.

Boshim tufrog', o'zim tufrog', jismim tufrog',

Haq vaslig'a yetarmen deb ruhim mushtiq

Kuydim, yondim, bo'lolmadim hargiz ofoq,

Shabnam bo'lib yer ostig'a kirdim mano (78 b)

Yetti yoshqa Arslonbobu Turkistonga keldilar,

Boshim qo'yib yig'ladim, holim ko'rib kuldilar,

Ming bir zikrin o'rgatib, mehribonlig' qildilar,

Arslon bobom so'zlarin eshitingiz tabarruk (87 b)

Tovba qilib haqqa yongan oshiq'larga,

Uchmoq ichra to'rt arig'da sharbati bor,  
Tovba qilmay haq yonmagan g'ofillarga,  
Tor lahadda qattig' azob-hasrati bor (99 b)  
Beshak biling, bu dunyo borcha eldin o'taro,  
Inonmag'il molingga, bir kun qo'ldin ketaro.  
Oto-ono, qarindosh, qayon ketti, fikr qil,  
To'rt ayog'lig' cho'bin ot bir kun sanga yetaro (221 b)

“Devoni hikmat”ning grammatik xususiyatiga e'tibor berilsa, she'rlar ko'pincha tinglovchiga (ikkinchi shaxsga) murojaat tarzida yozilgan va buyruq maylining -g'il,(-g'il),-gil, -gin (-g'in) shakli bilan berilgan:

Qayda ko'rsang ko'ngli siniq marham bo'lg'il,  
Andoq mazlum yo'lda qolsa hamdam bo'lg'il,  
Ro'zi mahshar dargohig'a mahram bo'lg'il,  
Moumanlik xaloyiqdin qochdim mano (41 b)  
Oqil ersang eranlarg'a xizmat qilg'il,  
Amri ma'ruf qilg'onlarni izzat qilg'il,  
Nahi munkar qig'onlarga hurmat qilg'il,  
Ul sababdin oltimish uchda kirdim yerga (52 b)  
Cho'llar kezib, xalqdin bezib, ishqdin so'rg'il,  
Banda bo'lsang, Haqdin qo'rqib, yig'lab yurg'il,  
Diydorini talab qilsang hozir bo'lg'il,  
Lomakonda Haqdin saboq oldim mano (74 b)  
Qul Xoja Ahmad, jondin kechib yo'lg'a kirgil,  
Partav solib Haq o'zig'a shaydo qilur,  
Majnun sifat aqlin olib Laylo qilur,  
Olloh haqqi bu so'zlarni yolg'oni yo'q (82 b)  
Ul Muhammad Mustafu turib duo qildilar,  
Maloyiklar omin deb ilgin ochib turdilar.  
Shundoq ummat berding deb Haq shukrini qildilar,  
Arslon bobom so'zlarin eshitingiz, tabarruk (85 b)  
Tong otquncha zikrin aytgil joning birla,  
Tog'u cho'lni bo'ston qilg'il yoshing birla,  
Toshdin qattig' toshg'a yotgil yoning birla,  
Yo'ldin ozg'on yuz ming g'ofil mardon bo'lur (153 b)  
Saharlarda erta turib qonlar yutgil,  
Piru mug'on etagini mahkam tutgil.  
Haqqa oshiq bo'lg'on bo'lsang jondin o'tgil,  
Jondin kechgan chin oshiqqlar uryon bo'lur (154 b)

Hikmatlarda fonetik jihatdan so'zlarning oxirida “g'” tovushining kelish holatini ko'plab uchratish mumkin: tufrag', tanyg', qamug', chыrag', ulug', andag', mundag', chыrag'va boshqa shu kabi. Bundan tashqari hikmatlarda -lik, -lig', -luk, -lug'qo'shimchasi bilan yasalgan nisbiy sifatlar juda ko'puchraydi: haqiqatlyg', uyqulug', qayg'ulug', o'nglug', so'filyg', yoshlig'g'ariblig',turlik, totlig', boshlig'va boshqa. Masalan:

Haq Mustafu Jabroildin qildi savol,  
Bu nechuk ruh tanga kirmay topdi kamol.  
Ko'zi yoshlig', xalqqa boshlig', qaddi hilol,  
Ul sababdin oltimish uchda kirdim yerga (48 b)  
Vodarig'o, nechuk qilg'um g'ariblig'da,  
G'ariblikda g'uribat ichra qoldim mano,  
Xurosonu Jomu Iroq niyat qilib,  
G'ariblig'ni ko'p qadrini bildim mano (71 b)  
Turlik ayshim, turlik ishim, munglig' boshim,  
Irdi jonim, ketdi hushim, oqdi yoshim,  
Yozuq bilan to'ldi tugal, ichim-toshim,  
Beniyozim ocha bersun yo'lim mening (93 b)  
Ka'ba sori ko'chaluk, zolimlardin qochaluk,  
O'g'ul-qizdin kechaluk, rizo bo'lung, do'stlarim (223 b)  
Zolim bo'lib zulm etkan, yetim ko'nglin og'ritgan,  
Qora yuzlug' mahsharda qo'lin orqada ko'rdum (224 b)  
Do'zax aytur: “Man ortuq, baxil qullar manda bor,  
Baxillarning bo'ynida o'tlug' zanjir-kishan bor” (230 b)

Eski uyg'ur tili va XIV asr yodgorliklarida keng qo'llangan sifatdosh yasovchi shakl -yur “Devoni hikmat”da juda kam ishlatiladi. Masalan: Sayrayur bechora bulbul. Bu shakl hikmat nusxalarining keyingilarida ham uchraydi: yig'layurlar, bo'zlayurlar, mangrayurlar.Hozirgi-kelasi zamon fe'l shakli -g'uYassaviy hikmatlarida juda ko'p ishlatilgan:

Zari qilsang banda devan surg'um mano,  
Shafi bo'lub shafaatni qilg'um o'zum.  
Ayo do'stlar, quloq soling aytdug'umg'a,  
Ne sababdin oltimish uchda kirdim yerga.  
Qiyomat kun g'azab qilsa Robbim qodir,  
Ayo do'stlar, nechuk javob ayg'um mano.

**Xulosa va takliflar.** Til kishilar o'rtasida o'zaro fikr almashishning muhim vositasi hisoblanib, uzoq davrlar davomida, turmush talablariga mos ravishda asta-sekin rivojlanib boradi. Shu sababli ham til tarixini o'rganish nafaqat taraqqiy etish usullarini aniqlash, ayni paytda, uni yaratgan xalq tarixini tadqiq qilishda ham alohida ahamiyatga ega. Xususan, "Devoni hikmat" asarining leksik xususiyatlari haqida gap ketganda, shuni ta'kidlash kerakki, asar lug'at tarkibini diaxron aspektida o'rganish orqali o'zbek adabiy tilining o'sha davrdagi o'ziga xos xususiyatlari va qonuniyatlari, xalqning turmush tarzi, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, madaniy taraqqiyotida xabardor bo'lish mumkin. "Devoni hikmat" so'z boyligini lingvistik nuqtai nazardan o'rganish yodgorlik tilidagi leksik birliklarning qo'llanishi yuzasidan aniq ma'lumotga ega bo'lish, turkiy va o'zlashgan qatlamlarning miqdor bo'yicha nisbati to'g'risida fikr-mulohazalar yuritish, so'z qo'llash mahorati hamda o'ziga xos jihatlari haqida tasavvur hosil qilishga yordam beradi. Devonda keltirilgan so'zlarni genetik nuqtai nazardan tadqiq qilish natijasida uning asosini turkiy qatlam tashkil etganligini, u o'z navbatida tub so'zlar, ular yordamida yasalgan leksemalar hamda o'zlashmalardan turkiy qo'shimchalar orqali hosil qilingan leksik birliklardan iborat ekanligi, shuningdek arab, fors-tojik tillardan kirib kelgan so'zlar ham mavjudligi ma'lum bo'ldi. O'z qatlamga qadimgi turkiy tilda va eski turkiy tilning ilk obidalarida iste'molda bo'lgan hamda o'sha asrda qo'llanishda bo'lgan leksik birliklardan iboratdir. Asarning til xususiyatlarini atroflicha o'rganish ko'p asrlik tarixga ega bo'lgan qardosh turkiy tillar leksikasining, xususan, o'zbek adabiy tilining shakllanishi va rivojlanishi borasidagi nazariy qarashlarga aniqlik kiritadi hamda o'zbek tili tarixiy leksikologiyasi uchun qimmatli ma'lumotlar beradi.

#### ADABIYOTLAR

1. T.Qurbonov. Tarixiy badiiy asar va davr tili masalalari. -Toshkent, 2006.-B. 10.
2. Q.Sodiqov. Turkiy til tarixi. -Toshkent, Toshkent Davlat Sharqshunoslik institute. 2009,-B. 69
3. B.Isabek. Yassaviy hikmatlari lug'ati. -Toshkent, Akadernashr. 2022, -B. 16.
4. B.Abdushukurov. O'zbek tili tarixi. -Toshkent, Nodirabegim. 2021, -B. 182
5. Tursunov U., O'rinboyev B., Aliyev A. O'zbek adabiy tili tarixi. -Toshkent, 1995. -B.26.
6. Muxtorov A., Sanaqulov U. O'zbek adabiy tili tarixi. -T.: O'qituvchi, 1995.-B. 89-90.
7. O'zbek adabiy tilining taraqqiyoti. 3-jild. Leksika. -T.: Fan, 1991.-B. 152.
8. O'zbek tili leksikologiyasi. -Toshkent, 1981.-B. 147.
9. Haqqulov I. Ahmad Yassaviy "Hikmatlar". -Toshkent, 1991.-B. 8.
10. Ahmad Yassaviy hikmatlar (O'zbek adabiyoti bo'stoni). -Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1990.